

**YANGICHA YONDASHUV ASOSIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI  
OSHIRUVCHI OMILLARI  
FACTORS THAT INCREASE PROFESSIONAL COMPETENCE BASED  
ON A NEW APPROACH**

**Nuriddinov Sharofiddin Shuxrat o'g'li<sup>1</sup>**

Qarshi davlat texnika universiteti

“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalari” kafedrası assistenti

**Nuriddinov Sharofiddin Shukhrat oğlu<sup>1</sup>**

Karshi State Technical University

Assistant of the Department of "Hydrotechnical Structures and Pumping Stations"

**Omonov Mirjalol Suyunboy o'g'li<sup>2</sup>**

Qarshi davlat texnika universiteti magistranti

**Omonov Mirjalol Suyunboy oğlu.<sup>2</sup>**

Master's student at Karshi State Technical University.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy mehnat bozori talablaridan kelib chiqib kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning yangicha yondashuvlari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya, soft skills, uzluksiz ta'lim, innovatsion fikrlash, amaliy tajribani oshirish va motivatsion omillar kompetensiya tarkibining asosiy komponentlari sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlari, uni shakllantirish mexanizmlari va zamonaviy ta'lim tizimi oldiga qo'yiladigan talablar ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetentlik, yangicha yondashuv, raqamli transformatsiya, soft skills, innovatsiya, uzluksiz ta'lim, professional rivojlanish.

**Annatation:** This article analyzes new approaches to the development of professional competence based on the requirements of the modern labor market. Digital transformation, soft skills, continuous education, innovative thinking, increasing practical experience, and motivational factors are studied as the main components of

the competence structure. The study covers the components of professional competence, the mechanisms for its formation, and the requirements for the modern education system on a scientific basis.

**Key words:** professional competence, new approach, digital transformation, soft skills, innovation, continuous education, professional development.

**Аннотация:** В статье анализируются новые подходы к формированию профессиональной компетентности, основанные на требованиях современного рынка труда. В качестве основных компонентов структуры компетентности рассматриваются цифровая трансформация, гибкие навыки, непрерывное образование, инновационное мышление, накопление практического опыта и мотивационные факторы. В исследовании на научной основе рассматриваются компоненты профессиональной компетентности, механизмы её формирования и требования к современной системе образования.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, новый подход, цифровая трансформация, гибкие навыки, инновации, непрерывное образование, профессиональное развитие.

**Kirish:** Globallashuv va ilm-fan taraqqiyoti natijasida mehnat bozori mutaxassislardan keng ko‘lamli bilim va ko‘nikmalarni talab qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kompetentlik tushunchasi avvalgidan ham kengroq ma‘no kasb etib, shaxsning nafaqat kasbiy bilimlari, balki kreativ fikrlashi, texnologiyalarni qo‘llay olishi, jamoada ishlashi, kommunikativ qobiliyati va moslashuvchanligini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois, kasbiy kompetentlikni yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish bugungi ta‘lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biridir. kasbiy tayyorgarlik – mehnat faoliyati yoki kasb sohasining aniq turini tanlash bilan bog‘liq, aniq va ongli ravishda qabul qilinadigan qarorning ifodalanishi bo‘lib, talabalar bilan amalga oshiriladigan maqsadga yo‘naltirilgan ishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, kasbiy moslashtirish bo‘lajak mutaxassisda pedagogik faoliyatga

bo'lgan ehtiyojni rivojlantiruvchi, unga nisbatan mas'uliyatli hamda ijodiy yondashuvni, ijtimoiy qadriyatlar motivatsiyasini tarbiyalovchi hamda shaxsga qaratilgan yo'nalish kasb etuvchi jarayonlar alohida tarkibiy qismlarining o'zaro integratsiyasi sifatida qarash mumkin. Kadrlarni kasbiy moslashtirishning pedagogik - psixologik jihatlari Tadqiqot muammosini nazariy jihatdan o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy dolzarbligini asoslashda mavzu doirasidagi ahamiyatli tushunchalar, kategoriyalar mazmunini yoritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bois, ilmiy izlanishlar davomida kasbiy moslashtirishning pedagogik - psixologik aspektlarini: motiv, kasb tanlash motivlari, kasbiy yo'nalganlik, pedagogik kasbga yo'nalganlik, pedagogik faoliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kompetentlik kabi tushunchalarning mohiyati aniqlashtirish orqali yoritishga harakat qildik. Maqolaning maqsadi – zamonaviy kompetentlik tushunchasini tahlil qilish va uni oshirishga xizmat qiluvchi omillarni ilmiy asoslashdir.

Kasbiy kompetentlik – bu mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarning integratsiyalashgan majmuasidir. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlar orqali izohlanadi:

- ⌚ **Kasbiy bilimlar (professional knowledge)** – nazariy va amaliy bilimlar tizimi;
- ⌚ **Kasbiy ko'nikma va malakalar (skills)** – kasbiy vazifalarni bajarish qobiliyati;
- ⌚ **Soft skills** – muloqot, muammoni hal qilish, liderlik, moslashuvchanlik;
- ⌚ **Raqamli kompetensiya** – texnologiyalarni qo'llash, axborotni qayta ishlash;
- ⌚ **Emotsional-intellektual rivojlanganlik** – o'zini boshqarish, stressga bardoshlik;
- ⌚ **Kreativ va innovatsion tafakkur** – yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati.

Bu elementlarning uyg'unligi mutaxassisning mehnat bozorida raqobatbardoshligini belgilaydi.

Kasbiy kompetentlikni oshirishning yangicha omillari – bu uzluksizlik ta'limidir (lifelong learning). XXI asrda bilimlar tez yangilanishi natijasida mutaxassislar malakasini muntazam oshirib borishi tabiiy ehtiyojga aylandi. Uzluksiz ta'lim quyidagilarni o'z ichiga oladi: onlayn kurslar va masofaviy ta'lim; mustaqil o'qish va o'zini rivojlantirish; malaka oshirish dasturlari; professional guruhlar va hamjamiyatlarda ishtirok etish kabilardir. Bu talim tizimi faollikni oshiradi, talabada kaskiy kompetentlik qobiliyatini oshiruvchi hisoblanadi, bundan tashqari ijodiy, kreativ, innovatsion, fikrlash qobiliyatiga layoqatlilikni oshirishga undaydi.

Yana bir ta'lim tizimi raqamli transformatsiya va digital kompetensiyalardir. Bunda Raqamli texnologiyalar kasbiy faoliyatning deyarli barcha sohalarini qamrab olgani sababli mutaxassis quyidagi ko'nikmalarni egallashi zarur:

- kompyuter savodxonligi bu kompyuter va raqamli texnologiyalardan ongli, samarali, xavfsiz va maqsadga muvofiq foydalanish ko'nikmasidir.

- ma'lumotlar bilan ishlash bu shaxsning ma'lumotlarni izlash, to'plash, tahlil qilish, talqin qilish, baholash va qaror qabul qilish jarayonida samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Boshqacha aytganda, ma'lumotlar bilan ishlash savodxonligi — bu raqamli muhitda mavjud bo'lgan turli formatdagi ma'lumotlarni (sonli, matnli, grafik, statistik va boshqalar) to'g'ri tushunish, ularning sifatini aniqlash, ular asosida xulosalar chiqarish hamda natijalarni boshqalarga aniq va tushunarli tarzda yetkazish kompetensiyasidir.

- raqamli kommunikatsiya bu raqamli muhitda (internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron pochta va boshqa onlayn platformalarda) samarali, xavfsiz, madaniyatli va maqsadga yo'naltirilgan tarzda muloqot qilish kompetensiyasidir.

Yangicha yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni oshirish omillarga quyidagicha ishchi ta'rif berish mumkin — bu mutaxassisning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda professional bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi, raqamli texnologiyalar, innovatsion fikrlash, soft

skills, uzluksiz ta'lim, amaliy tajriba va o'zini-o'zi rivojlantirishga asoslangan kompleks pedagogik, tashkiliy va motivatsion jarayonlar majmuasidir.

Yoki bu ishchi ta'rifga quyidagicha alternativ ishchi ta'rif keltirishimiz mumkin. Misol uchun mutaxassisning kasbiy faoliyatda yuqori natijaga erishishi uchun raqamli transformatsiya, innovatsion fikrlash, soft skills, uzluksiz ta'lim va amaliy tajribani uyg'unlashtirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik va tashkiliy mexanizmlar tizimidir, yoki mutaxassisning o'z kasbini samarali bajarishi uchun texnologiyalarni qo'llash, kreativ fikrlash, jamoaviy ishlash, doimiy o'qish va amaliy tajriba orttirish kabi zamonaviy ko'nikmalarni shakllantiruvchi shartlar to'plamidir deyish ham to'g'ri hisoblanadi. Yana boshqacha qilib aytganda mehnat bozoridagi o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishni ta'minlaydigan, innovatsion ta'lim texnologiyalari, raqamli kompetensiyalar, shaxsiy rivojlanish strategiyalari va professional tajribaning uzluksiz yangilanib borishiga asoslangan rivojlanish omillaridir.

**Xulosa** qilib aytganda tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yangicha yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni oshirish ko'p omilli va kompleks jarayon bo'lib, uning markazida shaxsning o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi turadi. Raqamli transformatsiya, innovatsion fikrlash, soft skills va uzluksiz ta'lim bo'yicha kompetensiyalar zamonaviy mutaxassisning raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shuning uchun ta'lim tizimi, ishlab chiqarish korxonalari va mutaxassislarning o'zlari kompetentlikni muntazam rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Boynazarov B. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari. – Toshkent, 2021.

2. Sh.Sh.Nuriddinov. Muxandislik yo‘nalishi talabalarini innovatsion yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik- psixologik xususiyatlari maqaolasi “Mug‘allim xam uzliksiz bilimlandiriu” ilimiy metodikal jurnal 2023 6/6.
3. SH.Nuriddinov B.Baratov. № DGU38937 Muhandislik yo‘nalishi talabalarini innovatsion yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirish platformasi. O‘z.Res advliya vazirligi 2024-yil.
4. Бабанский Ю.К.Педагогика высшей школы:Учеб.пособие для унтови педагогически хинтов.Алма-Ата,1989.17 бс.